

**ERKIN VOHIDOVONING ‘O‘ZBEGIM’ VA ‘RUHLAR ISYONI’
ASARLARINING BADIY TAHLILI.**

Usarova Laylo Ibragimovna

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika institute O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti.

Boltayeva Sevinch Ulug‘bek qizi

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika institute filologiya fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti
yo‘nalishi 1-bosqich talabasi.*

ANNOTATSIYA Mazkur maqolada Erkin Vohidovning ‘O‘zbekim’ va ‘Ruhlar isyoni’ asarlarining adabiyotshunoslikda tutgan o‘rni va badiiy tahlili berib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: Qasida, doston, shoir, tahlil, syujet.

Tabiatan g‘oyat nazokatli shaxs bo‘lgan Erkin Vohidov adabiyot ixlosmandlari ko‘nglidan nafis va chuqur joy olgan adibdir. Erkin Vohidovning hayoti va ijod yo‘li havas qilsa arzigulik. Biz yoshlar adibning hayoti va ijodi haqida o‘qir ekanmiz har bir qilgan ishidan o‘rnak olsak bo‘ladi. Masalan; shoirning Vatan haqidagi she‘ridan biron birini oladigan bo‘lsak undagi ma‘nolar olami limmo-lim. Bizni xayolga cho‘mdiradigan chuqur o‘ylarga to‘la. Shoir o‘zi yozganidek xalq dardi uning dardidir. Shoir bo‘lsang, bo‘lsin qalbing, Elga qurbon bo‘lgulik Shoir bo‘lsang bo‘lsin xalqing, Senga qurbon bo‘lgulik. Shaxsan men ERKIN VOHIDOVNI serqirra va olovyurak shoir deb bilaman. Sababi shuki, shoir o‘tgan davrdagi mafkuraviy ziddiyatlarga qaramasdan o‘zining ijodida Vatan mavzusini falsafiy misralar mazmuniga shunday singdirdiki, bu tushunchani o‘nlab she‘rlarida yoki birgina ‘O‘ZBEGIM’ qasidasi misolida asoslash ham mumkin. Bu asarni biz adabiyotshunoslik doirasida nazariy tahlil qilar ekanmiz avvalo uning g‘oyasi va mazmuni haqida to‘xtalamiz. Ushbu qasidada xalq taqdiri, vatan erki, ozodligi kabi tushunchalar zamirida ona Vatanga bo‘lgan muhabbat, sadoqat mujassamlashgan. Bu esa quyidagi satrlarda namoyon bo‘ladi; Tarixingdir ming asrlar

ichra pinhon o'zbekim, Senga tengdosh Pomiru, Oqsoch Tiyonshon, o'zbekim. Asarning mazmunida XX asrda yuz bergan voqealar xalqning taqdiri, shu paytda bo'lgan qora kunlar haqida so'z ketadi; O'tdilar sho'rlik boshingdan o'ynatib shamsgirlarin, Necha qon, necha sulton, necha ming xon, o'zbekim. [1;23] Asarni go'zal qilgan yana bir unsurlardan biri bu protatip obrazlarning qatnashganidir. Masalan; Al-Beruniy, Al-Xorazmiy, Al-Forob avlodidan, Asli nasli balki o'zluq, balki tarxon o'zbekim. Ushbu jihatning yana bir tarafi shuki, shoir qalamga olgan har bir tarixiy obraz ya'ni protatipga alohida -alohida urg'u berilib, ta'rif berib o'tiladi. Masalan; Tuzdi-yu Mirzo Ulug'bek Ko'ragoniy jadvalin, Sirli osmon toqiga ilk qo'ydi narvon, o'zbekim. O'zbekim qasidasi o'z vaqtida xalq o'rtasida og'izdan -og'izga tushmaydigan bo'lib qolgan asar edi. Rostdan ham ushbu asar g'ayrirasmiy milliy madhiyaga aylandi. O'ylaymanki shoir o'sha paytda O'zbekiston mustaqil, hur o'lkaga aylanishni rosa ham xohlagan. Buning isboti esa; Ma'rifatning shu'lasiga Talpinib zulmat aro, Ko'zlaringdan oqdi tunlar Kavkabiston, o'zbekim. Shoirning "RUHLAR ISYONI" dostonini tahlil qiladigan bo'lsak doston tasviri yo'sini va ifoda shakliga ko'ra betakror asardir. Doston xilma-xil she'riy shakllar, ritmik birliklar, hissiy ifodalar, hayotiy lavhalar, rivoyatlar, shartli ramziy tasvirlarning nazokatli uyg'unlashuvidan paydo bo'lgan. Shu xildagi rang-barang dostonlar asosidagi hayotiy va badiiy haqiqatni hamda muallifning fikr-tuyg'ularini ifodalashga xizmat qilgan. [1;13] Doston bengallik otashin shoir NAZRUL ISLOM haqida; Nazrul islom bu dunyoga, shoir bo'lib tug'ildi, Ilhom otli pok ziyoga, go'dak qalbi yo'g'rildi. El g'amini o'z dardi deb bilgan NAZRUL ISLOM adolatsizlik bilan kelisholmay butun kuchini yurtni ozod qilishga sarflaydi. Uni tor zindonga qamab ruhiy, ma'naviy zarba beradi. E'tiqoddan, maqsadidan qaytarmoqchi bo'ladi. Lekin bunga erisholmadi. Bu holat dostonda g'oyat ta'sirli ifodalangan; Nazrul Islom o'z qalbini, Bayroq qilib ko'tardi, Yuragida to so'nggi dam, Isyon o'ti so'nmadi Haqsizlikka ko'ndi olam, Ammo shoir ko'nmadi. Asardagi "JAHOLAT TO'G'RISIDA RIVOYAT" ni tahlil qilsak undagi syujetning ekspozitsiyasida urush payti ulug' donishmand hakimning ko'zini ochganidir. Tuguni esa tuzalgan hakim uning ishini qoralaydi, dunyoda bo'layotgan

yaxshi-yomon ishlarni ko'rib ko'zimni nashtar bilan bekor ochding deb noliydi. Xudo meni shunday yaratgan edi, sen meni ko'zimni ochmaganingda men dunyoda bo'layotgan yomon ishlarni ko'rmagan bo'lar edim deb aytadi. Voqealar rivojida esa johil olomon esa uning bu ishini yaratganga isyon hisoblab, uni sazoyi qilib, o'tda kuydirgani tasvirlanadi. Kulminatsiyada esa donishmanddan shifo topib ko'zi ochilgan chol uni Tangri irodasiga qarshi borganlikda ayblab donishmandni yoqish uchun poxol olib borishi ham tasvirlanadi. Bunday haqsizlikdan hakim faryod qiladi; Yoqing-deya so'radi u, - Olov bo'lsin sarbaland Tezroq ketay bu dunyodan, Hech toqatim qolmadi, Mendi shifo topdi odam, Olam shifo olmadi. Ko'r ko'zlarga mehriyodek, Nur baxsh etdi nashtarim, Qalblar ko'zin ochmoqqa lek, Kamlik qildi hunarim. Ammo shoir rivoyatni shu bilan tugatmadi. Jaholat, adolatsizlik g'alabasi mangu emas. Ezgulik ertami-kechmi har biri yuzga chiqadi. Bizning dono xalqimiz aytadilarku'' haqiqat egiladi, bukiladi, lekin sinmaydi''. Bu dostonda ham jarayonlar shunday kechadi. Shu olovdan elning, ajab, Aql ko'zi ochildi, O'kindilar. Aza tutib, Yig'ladilar, kuydilar Donishmandga yillar o'tib, Oltin haykal qo'ydilar. Bir so'z bilan aytganda 'RUHLAR ISYONI'' asari millat ma'naviyatini shakllantirishga ham jiddiy ta'sir ko'rsatgan asar sifatida namoyon bo'ladi. Yana dostonga qaytadigan bo'lsak, doston fojeiy bo'lsa ham unda qahramonlik va falsafiylik kuchli. Bundan tashqari dostonda turfa masalar qalamga olingan; ABADIYAT, SHOIR QALBI, ISYON, FIDOIYLIK, TUTQUNLIK, ISTIBDOD, OZODLIK, SHOH OTA VA SHOH O'G'IL, ZOHIDLIK VA ORIFLIK, OLIY RUHLAR KABI rang -barang mavzular alohida fasllarda ifoda etiladi. Garchi bu mavzular davr, g'oya, qismat nuqtayi nazaridan bir-biridan uzoq bo'sada, muallif o'zining shaxsiy fikrlari bilan har bir mavzuni chambarchas bog'laydi. [2;3] Doston haqsizlik va adolat, istibdod va erk orasidagi mangu kurashda iste'dod egasining o'rni haqidagi falsafiy mushohadalar o'rin oladi. Muallif chin iste'dodning tabiati yaralishdan nohaqlikka, adolatsizlikka, istibdodga qarshi ko'tarilgan isyondir deb hisoblaydi; [1;14] Shoir yurak- Pok tilagi, Iymonidir basharning, Armon to'la yurkdagi Isyonidir basharning. Doston boshdan oyoq NAZRUL ISLOM xotirasiga bag'ishlanar ekan, uning yurtidagi nohaqliklarga jimgina kuzatuvchi bo'lishni

xohlamaydi. Dunyoda nohaqlik qurboni bo'lgan ko'plab insonlarni yodga oladi. Jamiyatda sodir bo'layotgan nohaqlik va zulmning jabrlanuvchisi oddiy xalq kishisi bo'layotganini qayta -qayta ta'kidlaydi. Unday ishlarga shunchaki kuzatuvchi bo'lishi shoir qattiq qoralaydi; SAQLA-, DEYDI,- YURAK QO'RING DIL OTASHING SO'NMA SIN. UMRING ADO BO'LMAY TURIB CHO'G'ING ADO BO'LMASIN. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI; 1. ERKIN VOHIDOVNING SO'Z QO'LLASH MAHORATI [2020-YIL 21-MAY. \GULISTON 2020] 2. CONFERENCE PUBLICATION.COM [Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" asari-bebaho ma'naviy xazina].